

Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida, Navoiy viloyatida jami 10 489,7 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	10 489,7	109,1
Navoiy sh	1 210,9	106,9
Zarafshon sh	835,3	101,2
G'ozg'on sh	33,8	102,3
Konimex tumani	138,8	103,0
Qiziltepa tumani	1 123,7	103,1
Navbahor tumani	602,7	108,6
Karmana tumani	1 780,7	3,2m
Nurota tumani	363,7	66,8
Tomdi tumani	723,3	49,0
Uchquduq tumani	360,9	180,5
Xatirchi tumani	572,5	107,9

*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 75,5 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,6 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,9 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 115,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	2 219,5	916,9	22,7
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>114,2</i>	<i>119,8</i>	<i>189,9</i>
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	2 026,9	1 242,2	385,9
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>105,4</i>	<i>107,9</i>	<i>112,7</i>
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	3 675,6	-	-
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>105,7</i>	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-sentabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 159,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 116,1 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,7 % ga ko'payib, 30,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 34,9 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ni tashkil etgan holda 3 655,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 35,0 % ni yoki 3 675,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Navoiy viloyati	3 159,1	3 655,0	3 675,6	116,1	107,0	105,7
Navoiy sh	277,3	778,9	154,7	120,4	103,1	104,7
Zarafshon sh	-	742,6	92,7	-	114,4	103,8
G'ozg'on sh	-	19,7	14,1	-	101,9	102,9
Konimex tumani	26,4	78,5	33,9	111,5	99,4	105,8
Qiziltepa tumani	399,9	441,5	282,3	100,6	103,0	107,0
Navbahor tumani	40,2	340,7	221,8	98,2	112,0	105,5
Karmana tumani	1 241,4	282,8	256,5	38,7 m	98,8	106,1
Nurota tumani	55,4	142,5	165,8	21,9	106,7	105,7
Tomdi tumani	652,8	59,7	10,8	46,1	119,1	102,8
Uchquduq tumani	252,5	57,9	50,5	3,1 m	84,6	102,4
Xatirchi tumani	46,7	175,0	350,8	133,0	106,1	106,1

*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Karmana tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 38,7 m), Uchquduq tumanida (3,1 m) va Xatirchi tumanda (133,0 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Tomdi tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 119,1 %), Zarafshon shahrida (114,4 %) va Navbahor tumanida (112,0 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Bahronov
79 223-54-73 (85-20)

Manzil:

